
Pensiya ta'minotiga doir yangiliklardan xabardormisiz?

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.Mirziyoyev tomonidan 2022 yil 9 fevralda imzolangan "Fuqarolarning va tadbikorlik sub'ektlarining huquqlari kafolatlari yanada kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuniga asosan O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 3 sentyabrda qabul qilingan "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida" gi qonuniga quyidagi tartibda o'zgartishlar va qo'shimcha kiritildi:

□Xususan, nogironlik pensiyalari qonunchilikda belgilangan tartibda I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar deb topilganlarga, shuningdek Chernobily AESdagi avariya tufayli mayib bo'lish yoki kasallik oqibatida III guruh nogironligi bo'lganlarga nogironlik pensiyalari tayinlandi.

□Bolalar, aka-ukalar, opa-singillar va nabiralalar 18 yoshga to'lmagan bo'lsa yoki 18 yoshdan katta bo'lsa, agar ular 18 yoshga to'lguniga qadar nogironligi bor bola bo'lib qolgan bo'lsa, oilaning mehnatga qobiliyatsiz a'zolari hisoblanadilar. Bunda basharti, agar aka-ukalar, opa-singillar va nabiralarning mehnatga qobiliyatli ota-onasi bo'lmasa, yoki uni o'rnini egallagan shaxslarga vasiylik va xomiylik bo'yicha hokim qaroriga asosan ularga tayinlanadi.

□Otasi yoki onasi vafot etgan bolalarga boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari 16 yoshga to'lgunga qadar, o'quvchilarga esa 18 yoshga to'lgunga qadar tayinlab to'lanar edi. Joriy yil, 9 fevraldan boshlab ta'lim tashkilotlarining o'quvchilari va talabalari o'qishning butun davri davomida, biroq 23 yoshga to'lguniga qadar boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini olish huquqiga ega bo'ldi.

□Shuningdek, qonunning 37- moddasi "d" bandi 16 yoshgacha bo'lgan nogironligi bor bolaga qarab turilgan vaqtni mehnat stajiga qo'shib olish nogironligi bor bolalarning yoshi 18 yosh qilib belgilandi.

□Qonunning 37- moddasi "j" bandiga asosan ko'p bolali onalarning bolalariga qarab turgan davri ko'pi bilan 3 yil qo'shib berilar edi. Yangi tahrirdagi qonunga ko'ra, 10 fevraldan boshlab yangitdan nafaqaga chiquvchilarning mehnat stajlariga agarda ular 6 yildan ko'proq bolaga qarab turgan bo'lsalar, ko'pi bilan 6 yil qo'shib beriladi.

Maxsudali Topvoldiyev,

Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi Farg'ona shahar bo'limi boshlig'i o'rinbosari.

2022-05-25 18:41:58